



**TASHKENT INTERNATIONAL
UNIVERSITY OF EDUCATION
MUT-24**

**O'SMIRLARDA KASB TANLASH JARAYONIDA EMOTSIONAL
YO'NALGANLIKNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TA'SIRI
XUSUSIYATLARI**

Mamatova Mavluda Ixtiyor qizi
Toshkent Xalqaro Ta'lim Universiteti
Pedagogika tarixi fakulteti
mavludamamatova107@gmail.com
+998906093633

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 24.12.2025

Revised: 25.12.2025

Accepted: 26.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*tarbiya, barkamol shaxs,
ta'lim, xulq, qadriyat, faoliyat,
o'smir, kreativlik, sanogen
tafakkur, ijtimoiylashuv, burch,
liderlik, ijtimoiy mobillik, kasbiy
tip.*

Ushbu maqolada o'smirlarning kasb tanlash jarayoniga individual psixologik xususiyatlar, xususan emotsional yo'nalganlikning ta'siri tahlil qilinadi. Tarbiya jarayonining asosiy maqsadi jamiyat talablariga javob bera oladigan barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat bo'lib, bu jarayonda o'smirlarning kasbiy yo'nalishiga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek kasbiy motivlarning shakllanish mexanizmlari o'rganilgan.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilanganidek, ta'lim jarayoni yosh avlodga mustahkam bilim berish, ularni intellektual salohiyatli, yuqori malakali mutaxassislar etib tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Ta'lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi – jamiyatning rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Bunda yoshlarda ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy va kasbiy sifatlarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lishi uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, har bir o'smirning o'z qiziqishlari, layoqati va salohiyatiga mos kasb tanlashi, ularni hayotda to'g'ri yo'lga yo'naltirish hozirgi davrda dolzarb muammolardan biridir.

Yosh avlodda mehnatga munosabat, kasbiy qarashlar, hayotiy maqsadlar maktab davridanoq shakllana boshlaydi. Shuning uchun o'smirlik davri inson hayotidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxsning psixologik, ijtimoiy, emotsional va axloqiy jihatlari rivojlanadi, uning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan qator sifatlarni tarkib topadi. Shu sababli o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish masalasi nafaqat psixologik, balki pedagogik nuqtai nazardan ham chuqur o'rganishni talab qiladi.

Asosiy qism

O'smirlik davri – inson hayotidagi eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlardan biridir. Bu davrda shaxsda jismoniy, emotsional, intellektual va ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aynan shu davrda kasb tanlash bilan bog'liq qarorlar shakllanadi va kelajakdagi faoliyat yo'nalishi belgilanadi. O'smirlik yoshi o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, bu davrda emotsional barqarorlik hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shuning uchun kasb tanlashda emotsional yo'nalish va shaxsiy xususiyatlarning o'zaro bog'liqligini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning kasb tanlashiga ta'sir etuvchi omillar ko'p. Ular orasida oilaviy muhit, o'qituvchilarning yo'naltiruvchi roli, do'stlar, ijtimoiy tarmoqdagi axborotlar va, albatta, shaxsning ichki psixologik holati muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, emotsional yo'nalishning kuchi va barqarorligi o'smirlarning qaror qabul qilish qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Emotsional yo'nalish shaxsning ijtimoiy muhitdagi munosabati, o'ziga va boshqalarga bo'lgan ishonchi, hayotiy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori darajadagi ijobiy emotsional yo'nalishga ega bo'lgan o'smirlar

hayotda aniq maqsadlarga intiluvchi, kasb tanlashda qat'iy va mustaqil bo'lishadi. Aksincha, emotsional beqarorlik, ichki ziddiyatlar va noaniqlik holatlari esa, shaxsda ishonchsizlikni kuchaytiradi, kasb tanlashda ikkilanishga sabab bo'ladi.

Pedagogik jarayonda o'quvchilarning shaxsiy va emotsional jihatlarini chuqur tahlil qilish, ularga individual yondashuv asosida maslahat berish, ularning qiziqishlari va layoqatlarini hisobga olgan holda kasbiy yo'naltirish – hozirgi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Bu esa nafaqat o'quvchilarning kelajakdagi ijtimoiy-moddiy farovonligi, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim hisoblanadi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda emotsional yo'nalish va kasb tanlovi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan ko'plab yondashuvlar mavjud. Xususan, o'smirlarning temperament turi, xarakter xususiyatlari, o'zini anglash darajasi va emotsional barqarorlik kabi omillar kasbga bo'lgan munosabat va tanlovga bevosita ta'sir etadi. Har bir shaxsning emotsional foniga asoslangan qaror qabul qilish uslubi uning kelajakdagi faoliyat sohasini belgilab berishi mumkin.

O'smirlik davridagi ijtimoiy muhit, ayniqsa, oila va maktabdagi emotsional aloqalar, shaxsda kasb tanlashga bo'lgan motivatsiyani shakllantiradi. Ota-onaning kasbga bo'lgan munosabati, bolaga bo'lgan ishonchi va qo'llab-quvvatlashi, o'qituvchilarning emotsional ta'siri – bularning barchasi o'smirda o'zini anglash, o'ziga bo'lgan ishonch va kasbiy intilishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Emotsional yo'nalishning ijobiy shakllanishi – bu o'smirda o'z salohiyatini anglash, ijobiy o'z-o'zini baholash, o'z kuchiga ishonch va faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, o'quvchilarning emotsional holatini aniqlash, ularda qiziqish va motivatsiyani uyg'otish, ularni kasbiy yo'naltirishda psixologik-pedagogik yondashuvdan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi.


Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda aniqlanishicha, o'smirlarning kasb tanlashdagi noaniqligi ko'pincha ularning emotsional-irodaviy sifatlarining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Bunday hollarda, o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, individual maslahatlar, emotsional qo'llab-quvvatlash va motivatsion treninglar katta samara beradi.

Biz ilmiy izlanishlarimizda o'smirlar kasb tanlash jarayoniga individual psixologik xususiyatlar ta'siri muammolarini o'rganish maqsadida Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining umumta'lim maktablarida tadqiqot ishlarini olib bordik. Bunda tadqiqot obyekti sifatida o'smir yoshidagi maktab o'quvchilarining jami 387 nafari ishtirok

etdi. Jami ishtirokchilar tajriba guruhida (TG) 224 nafar va nazorat guruhida (NG) 163 nafar ishtirokchi sifatida taqsimlandi.

O'smirlar shaxsi kasbiy tiplarini aniqlash maqsadida Xolland metodikasi qo'llanildi. Ushbu metodika ishtirokchilarning realistik, intellektual, ijtimoiy, konvensial, tadbirkor, artistik tiplarga ajratilgan kasb tiplaridan qaysi biriga aloqadorligini aniqlash imkonini bergan. Metodika bo'yicha olingan natijalar umumiy va har bir hudud bo'yicha alohida ko'rinishda keltirilgan.

Umumiy ishtirokchilar soni bo'yicha o'smirlar shaxsi kasbiy tiplar diagnostik natijalari ko'rsatgichi 1-rasmda diagramma shaklida keltirilgan.



1-rasm. O'smirlar shaxsi kasbiy tiplar umumiy ko'rsatgichi

Jadvalda keltirilgan, o'smirlar shaxsi kasbiy tiplar ko'rsatgichi natijalari: realistik tip – TGda o'g'il bolalar - 21,6%; qiz bolalar - 7,0; o'g'il va qiz bolalar o'rtacha – 14,3%; NGda o'g'il bolalar - 23,5%; qiz bolalar - 6,1%; o'g'il va qiz bolalar o'rtacha – 14,8%; intellektual tip – TGda o'g'il bolalar - 12,6%; qiz bolalar - 8,9; o'g'il va qiz bolalar o'rtacha – 10,7%; NGda o'g'il bolalar - 10,2%; qiz bolalar - 9,3; o'g'il va qiz bolalar o'rtacha – 9,7%; ijtimoiy tip – TGda o'g'il bolalar - 12,3%; qiz bolalar - 22,8; o'g'il va qiz bolalar o'rtacha – 17,6%; NGda o'g'il bolalar - 12,1%; qiz bolalar - 24,6; o'g'il va qiz bolalar o'rtacha – 18,4%; konvensial tip – TGda o'g'il bolalar - 25,2%; qiz bolalar - 23,7; o'g'il va qiz bolalar o'rtacha – 24,4%; NGda o'g'il bolalar - 21,1%; qiz bolalar - 23,9; o'g'il va qiz bolalar o'rtacha – 22,5%; tadbirkor tip – TGda o'g'il bolalar - 22,0%; qiz bolalar - 16,9; o'g'il va qiz bolalar o'rtacha – 19,4%; NGda o'g'il bolalar - 23,4%; qiz bolalar - 14,1; o'g'il va qiz

bolalar o'rtacha – 18,8%; artistik tip – TGda o'g'il bolalar - 6,3%; qiz bolalar - 20,7; o'g'il va qiz bolalar o'rtacha – 13,5%; NGda o'g'il bolalar - 9,7%; qiz bolalar - 22,0; o'g'il va qiz bolalar o'rtacha – 15,8%;

Umumiy ishtirokchilar soni bo'yicha olingan natijaga asosan, TG o'g'il bolalarda konvensial tip, tadbirkor tip, realistik tip ketma-ketligi, TG qiz bolalarda konvensial tip, ijtimoiy tip, artistik tip ketma-ketligi ustunlik qilmoqda. NG o'g'il bolalarda realistik tip, tadbirkor tip, konvensial tip ketma-ketligi, NG qiz bolalarda ijtimoiy tip, konvensial tip, artistik tip ketmaketligi ustunlik qilmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Kasb tanlash – bu nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy jarayon, balki shaxsiy emotsional va psixologik omillar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Psixologlar D.E. Super, E.A. Klimov va G. Selye o'z tadqiqotlarida shaxsning kasbga yo'nalishi asosan uch asosiy omilga: qiziqish, moyillik va emotsional yo'nalganlikka bog'liqligini ta'kidlaydilar.

E.A. Klimov o'smirlarning kasb tanlash jarayonida psixologik muvofiqlikni o'rganib, emotsional holatning ijtimoiy moslashuv va kasbiy o'zini anglashi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatgan. Unga ko'ra, o'zini qadrlash darajasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va emotsional barqarorlik kasb tanlashda muhim rol o'ynaydi.

V.A. Labunskaya o'smirlarning emotsional intellekti va o'ziga bo'lgan ishonchi kasbiy tanlovda qanday ta'sir ko'rsatishini o'rgangan. Uning fikricha, ijobiy emotsional muhitda voyaga yetgan o'smirlar o'z imkoniyatlarini aniq baholay oladi, bu esa ularning kasb tanlashdagi aniqligini oshiradi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar (masalan, M.G. Dolgova va L.I. Bojovich ishlari) o'smirlik davrida shaxsiy emotsional tajribaning intensivligi ortishini, bu esa kasb tanlashda noaniqlik, xavotir va qaror qabul qilishdagi kechikishlarga olib kelishini ta'kidlaydi. Ular bu jarayonda psixologik yordamning, ayniqsa, maktab psixologi va ota-onalarning rolini kuchli ta'sir vositasi deb baholashadi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'smirlarning kasb tanlash qarorlariga bevosita emotsional yo'nalganlik (masalan, ijobiy his-tuyg'ular, o'ziga ishonch, motivatsiya darajasi) sezilarli darajada ta'sir qiladi. Respondentlar orasida emotsional barqarorlikka ega o'smirlar kasb tanlashda ancha aniqlik va qat'iyatlilik namoyon qilgan. Ular o'z imkoniyatlarini real baholashga moyil bo'lib, tashqi ta'sirlarga kamroq bog'liq bo'lgan.

Boshqa tomondan, emotsional beqarorlik, ya'ni o'ziga ishonchsizlik, xavotir va ijtimoiy ta'sirga haddan tashqari berilish kasb tanlashda noaniqlikka, ortiqcha ikkilanishlarga olib kelgani kuzatildi. Bu esa o'smirlarda kasbiy identifikatsiyaning shakllanish jarayonini sekinlashtiradi.

Muhokama jarayonida aniq bo'ldiki, emotsional yo'nalganlik faqat psixologik emas, balki pedagogik muhit tomonidan ham shakllantiriladi. Ya'ni o'qituvchi va ota-onalarning qo'llab-quvvatlovchi va yo'naltiruvchi rollari, emotsional ilqlik va ishonch muhiti o'smirning kasb tanlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu asosda, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishda emotsional tarbiyaning, motivatsiyaning shakllantirishning, shuningdek, psixologik maslahat xizmatining tizimli faoliyati kasb tanlash jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi.

Demak, ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq jarayon. Ta'lim tarbiya uzviy bog'liq jarayon. Ta'lim tarbiya berish jarayonida shaxsning ichki kechinmalari ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlarni bilish muhim hisoblanadi. Barkamol shaxs har tomonlama ham ruhan ham jismonan sog'lom bo'lgandagina ta'lim-tarbiya olish jarayoni samaraliroq bo'ladi. Shaxsning pedagogik jihatlari, xulq-atvori muammolariga to'g'ri yondashib yechim topadigan bo'lsak jamiyat talablariga javob beradigan komil shaxsni tarbiyalagan bo'lamiz.

Xulosa

O'tkazilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, o'smirlarning kasb tanlash jarayonida ularning emotsional yo'nalish darajasi muhim omil hisoblanadi. Emotsional barqarorlik, o'zini anglash, motivatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash o'smirning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida o'quvchilarni emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy orientatsiyasini to'g'ri yo'naltirish muhim vazifalardan biridir.

Kasb tanlashda emotsional omillarning e'tiborga olinishi o'smirlarning shaxsiy salohiyatini to'liq ochish, o'ziga ishonchini oshirish va hayotda muvaffaqiyatli yo'l tanlashiga zamin yaratadi. Shuningdek, maktabda kasbga yo'naltirish ishlarida psixolog, pedagog va ota-onalarning hamkorligi asosida emotsional jihatdan qulay muhit yaratish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kasb tanlashda emotsional yo'nalishning pedagogik va psixologik aspektlarini chuqur o'rganish, ushbu sohada samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6208-son Farmoni.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 170 b.
3. Abdullayev S.U. Aholi bandligini oshirishning ijtimoiy mexanizmlari. Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) disser. avtoref.: 22.00.02. – T.: 2021.
4. Klimov YE. A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya: ucheb. posobiye – M.: “Akademiya”, 2004. – 304 s.
5. Golubeva O.V., Katkova O.V., Korneva T.A., Madadova K.X. Vliyaniye sotsialnix faktorov na vibor pedagogicheskoy professii. Innovatsionnaya ekonomika:perspektivi razvitiya i sovershenstvovaniya: nauchno-prakticheskiy jurnal // №8 (42), 2019 . 197-202 s.
6. Bodrov V.A. Psixologiya professionalnoy prigodnosti. Uchebnoye posobiye dlya vuzov – M.. PER SE, 2001 - 511 s.
7. BEKMURODOVA, Hafiza. "O‘SMIRLARNI KASBGA YO ‘NALTIRISH JARAYONIDA INDIVIDUAL XARAKTER XUSUSIYATLARINING TA’SIRI MUHIM IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMIL SIFATIDA." News of UzMU journal 1.1.2 (2024): 78-82.